

BADIIY SINTEZNING TARIXIY ILDIZLARI (GENEZISI)

Imomova Gulchehra Muhammadiyevna

QarshiDU. Filologiya fanlari doktori (DSc)

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri

gulchehramomova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida obrazlar sathidagi badiiy sintezning tarixiy ildizlari (genezisi) adabiyotimiz merosining qadimiy davrlariga borib taqalishi o'rganilgan bo'lib, Navoiy, Ibn Sino, Dante asarlari va xalq orasida mashhur bo'lgan bir qator Sharq adabiyoti durdonalaridan olingan qator misollar orqali badiiy sintezning tarixiy ildizlari tadqiq qilingan. Qolaversa, Ulug'bek Hamdam va Isajon Sulton hikoyalari keltirilgan obrazlar sintezida Sharq va G'arb adabiyotidagi poetik sintezning ahamiyati muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: *sintez, obrazlar sintezi, estetik ideal, genezis, "Xamsa" dostoni, "Qissasi Rabg'uziy", Jomiy, Lutfiy, "Yusuf va Zulayho" dostoni, Gyote, "Zulayxonoma"*

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются исторические корни (генезис) художественного синтеза на уровне образов в узбекской литературе, восходящие к древнейшим временам нашего литературного наследия, а также взят ряд примеров из произведений Навои, Ибн Сина, Данте и ряд шедевров восточной литературы, популярные в народе благодаря историческим корням художественного синтеза. Кроме того, важность поэтического синтеза в восточной и западной литературе обсуждалась при синтезе образов, представленных в рассказах Улугбека Хамдама и Исаджона Султана.

Ключевые слова: *сintez, синтез образов, эстетический идеал, генезис, эпос «Хамса», «Кисси Рабгузи», Джами, Лютфий, эпос «Юсуф и Зулайхо», Гете, «Зулайханом»*

ABSTRACT

In this article, the historical roots (genesis) of the artistic synthesis at the level of images in Uzbek literature are studied, going back to the ancient times of our literary heritage, and a number of examples are taken from the works of Navoi, Ibn Sina, Dante and a number of masterpieces of Eastern literature that are popular among the people through the historical roots of artistic synthesis. In addition, the importance of poetic

synthesis in Eastern and Western literature was discussed in the synthesis of images presented in the stories of Ulugbek Hamdam and Isajon Sultan.

Key words: *synthesis, synthesis of images, aesthetic ideal, genesis, "Khamsa" epic, "Kissasi Rabguzi", Jami, Lutfiy, "Yusuf and Zulaiho" epic, Goethe, "Zulaykhanoma"*

KIRISH (Introduction)

Obrazlar sathidagi badiiy sintezning tarixiy ildizlari adabiyotimiz merosining qadimiy davrlariga borib taqaladi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida shoir o‘zi yaratmoqchi bo‘lgan Farhod obrazida besh xislat mavjud bo‘lishini alohida ta’kidlagan edi.

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma’xzain besh qism qo‘ydi.
Firoqu rashku hajru oh ila dard,
Birar harf ibtidodin aylabon fard.¹

Modomiki, Alisher Navoiy XV asrdayoq Farhod qiyofasida besh xislat mujassam bo‘lishini istagan ekan, bu obraz sathidagi badiiy sintezning o‘ziga xos ko‘rinishini tashkil etadi. Bunday mahoratni barcha ijodkorlardan qidirib topish mumkin emas. Obraz sathidagi badiiy sintezga adabiyotimiz tarixida Navoiy singari ulkan daholargina to‘la erishgan. Keyinchalik realistik adabiyotda voqelikni to‘la tasvirlash, kishilar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni butun drammatizmi bilan aks ettirish ehtiyoji namoyon bo‘la boshladi.

ASOSIY QISM (Main part)

Adabiyotshunos Z.Isomiddinov “Navoiyning ideali” maqolasida Hazrat Alisher Navoiy kimni ideal deb bilgan, degan savolni o‘rtaga tashlaydi va “bunga ikki xil javob bor”, – deb izohlaydi.² Olimning fikriga ko‘ra, Navoiyning Muhammad alayhissalomni ideal deb bilganligini asoslashning hojati yo‘q. Darhaqiqat, ustoz Jomiyi pir deb bilgan va Naqshbandiya tariqatini qabul qilgan zot boshqacha yo‘l tutmasligi tabiiy va ishonarli. Ikkinchidan, Alisher Navoiyning ideali ham Farhod, ham Rasuli akram. Olim buning sabablarini payg‘ambarlarni obraz sifatida tasvirlash mumkin emas, ya’ni Rasululloh haqida adabiyotda badiiy to‘qimaga o‘rin berilmaydi, suratlari chizilmaydi, teatr sahnasi va kinofilmlarda ovozlari berilmaydi, deb izohlaydi.

Navoiy na’t g‘azallari va rivoyatlarida eng go‘zal axloq egasi va xulqlarni kamolga yetkazish uchun yuborilgan payg‘ambarimizni ulug‘lagan. Navoiy

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. XX tomlik, VIII tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 67.

² Qarang: Isomiddinov Z. Shavqi navo. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B. 12-33.

payg‘ambarimizga xos bo‘lgan fazilatlarining ayrimlarini Farhod obraziga singdirgan. Maqolada payg‘ambarimiz bilan bog‘liq voqealarning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodga ko‘chirilishi aniq misollar bilan isbotlab berilgan.

Navoiygacha yaratilgan “Xamsa”larda bunday hol kuzatilmaydi, chunki ularda Farhod bosh qahramon sifatida tanlanmagan. Bu faqat ulug‘ shoirning yuksak aql-tafakkur va taxayyuloti natijasida yaratilgan betakror obrazdir.

Yusuf badiiy adabiyotimizdagi faol, ommalashgan obrazlardan biri. Qur‘oni Karimda, shundan so‘ng yaratilgan “Qissasi Rabg‘uziy”, Jomiy va Lutfiy qalamiga mansub “Yusuf va Zulayho” dostonlarida, Gyotening “Zulayxonoma”sida bu zot haqida hikoya qilingan.

Nosiruddin Rabg‘uziy mazkur asarni yozishda faqat Qur‘on bilan cheklanib qolmagan, turkiy xalqlar og‘zaki ijodi va adabiy manbalaridan ham foydalangan. Muallif asarning boshlanishida bu haqida yozadi: “Ug‘on (Tangri) izimiz (Xudo) kitobi qadim, Qur‘oni azim munavvari karim ichinda xabar berur, yorliqar (farmon) Nahnu naqussu alayka ahsanal-qasasi (Biz senga eng yaxshi qissani bayon qilmoqchimiz).³ Muallif Yusuf qissasining “eng yaxshi” ekanligini to‘qqiz xil javob bilan izohlab beradi.

Nima uchun aynan mana shu obraz adabiyotda boshqalariga nisbatan ko‘proq tarqalganligini quyidagicha izohlash mumkin. Yusuf payg‘ambarning hayoti Qur‘onda boshqa payg‘ambarlar hayotiga qaraganda keng, batafsil yaratilgan. Ikkinchidan, bu zotning hayotlari sevgi-muhabbat bilan bog‘liq lavhalarning mavjudligi. Yusuf alayhissalom hayoti voqealar yakunida xuddi xalq ertaklaridagidek qahramonlarning “murodu maqsadlariga yetish”lari bilan tugallanishi, u zotning hayotlari xalq ertaklariga o‘xshab ketishi, voqealardagi kuchli drammatizm, ham oilaviy, ham ijtimoiy hayotning aks ettirilishi. Albatta, bu bizning qarashlarimiz, xolos. Yusuf obrazi forsiy va turkiy adabiyotda shu darajada keng tarqalganki, ijodkorlar XX asr adabiyotida ham bu obrazga murojaat qilishmoqda.

Adabiyotshunos va yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning ham xuddi shu nom bilan ataladigan asari mavjud. Unda Yusuf va Zulayho bozorga kirishadi, ammo bozordan chiqib ketish yo‘lini topa olishmaydi. Asar boshdan-oxir ramziy-majoziylikka yo‘g‘rilgan. Ularning bir-birlarini yo‘qotib qo‘yishlari, choyxonachi tomonidan bozordan faqat qabriston orqali chiqish mumkinligi, Zulayhoning tilla buyumlar sotiladigan do‘konda paydo bo‘lib qolishi, Yusufning bozorbooshi bo‘lishi, barcha-barcha voqealar ramziy-majoziy xarakterga ega. Asarda bo‘lib o‘tadigan voqealar sinchkovlik bilan kuzatilsa, mashhur qissaning badiiy sintezi ekanligi seziladi. Ijodkorning vazifasi

³ Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: Yozuvchi, 1990. – B. 103.

barcha zamonlarda bir xil bo'lgan. Insonni to'g'ri yo'lga boshlash, hidoyat yo'lini ko'rsatish, uni chin saodatga boshlash demakdir.

Sharq xalqlari adabiyotlarida Ibn Sinogacha va undan keyin ham xayoliy sayr, ilohiy olam tasavvurlari vositasida asar yozish an'ana bo'lgan. Eronshunos olim E.Bloshe "Ilohiy komediya"ning sharqiy manbalari" maqolasida keltirishicha, Dantening "narigi dunyo"ga sayohati Zardusht dinidagi taqvodor Viraf tushlarining aks-sadosidir. Shoir buni islom aqidalari orqali qabul qilgan bo'lishi kerak, deya ta'kidlaydi olim⁴.

Sharq xalqlari orqasida arab, fors va turkiy tillarda keng tarqalgan "Me'rojnama" deb nomlangan yaratmalar shunday asarlardandir. Ularda Muhammad Mustafo Payg'ambarning osmonga ko'tarilib, Arshda Xudo dargohiga tashrifi do'zaxu jannatni aylanib chiqqani, gunohkorlarning uqubatu hasratlari, pokdomon ruhlarning esa behishtdagi rohat-farog'atlari kuylanadi.

Diniy ezgu maqsadlarni ko'zlab, islom dinini yanada mustahkamlash kabi ulug' niyatda bitilgan bu xayoliy-ilohiy qissalarda zo'r ehtiros bilan yaratilgan epizodlar son-sanoqsiz.

X asr shoiri Shayx Avhaddin Kirmoniyning "Misbohul arvoh" (Ruhlar chirog'i) asarida ham xayoliy-ilohiy sayohat vositasi orqali allegorik ma'no -mazmun o'z ifodasini topgan.

Akademik A.Veselovskiy fikricha, bunday asarlar o'rta asr xristian adabiyotida ham, Sharqda ham ko'p bo'lgan. Chunonchi, ruhlar go'dakligida u dunyoga olib ketgan bola haqidagi osetin ertagi, o'ldirilgan akasini izlab, do'zaxga yo'l olgan Kubayko ismli qiz to'g'risidagi tatar xalq ertagi va ba'zi hind afsonalari "Ilohiy komediya" asarining mushtarak shaklga oid parallellarini tashkil etadilar⁵.

IX asrda yashab ijod etgan ulug' mutafakkir, buyuk insonparvar shoir Abu A'loal – Maarriy "narigi dunyo" to'g'risidagi diniy afsonalardan keng foydalanib, "Risolatul – ufron", ("Minnatdorlik maktublari"), "Risolatul maloik" ("Maloikalar (farishtalar xabari)") dostonlarini yozib, ularda zamonasining johil, nodon ruhoniylarini, hovliqma, laqma odamlarni satirik tarzda mazax qilgan. Abu A'lo go'yo u dunyoga sayohat qilib, o'z muxoliflarini uchratib qoladi. Ularning ahvoli, do'zax darvozaboni iblis Molik qilayotgan ishlarni bevosita kuzatadi. Va o'zining yovuz, ikkiyuzlamachi nokaslarga nisbatan nafratini talqin etadi⁶.

Sharqning atoqli san'atkorlaridan biri Abulmajid Sanoiyning "Sayrul ibod ilal maod" ("Bandalarning sayr qilib, o'z joylariga qaytishlari") dostoni buning yana bir yorqin misolidir. Tub mazmuni, obrazlari va tuzilishi bilan bu asar "Ilohiy

⁴ Qarang: «Arabskaya srednevekovaya kultura i literatura» (Stati zarubejnyx uchenyx). – M.: Nauka, 1978. – S. 204.

⁵ Qarang: «Дантевская чтения». – М.: Наука, 1973. – С. 115-116.

⁶ Bu haqda batafsil qarang: Komilov N. Ibn Sino va Dante. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 21-24.

komediya”ga ham shaklan, ham mazmuni bilan yaqindir. Sharqshunos olim professor YE.Bertels o’z vaqtida bu asarga ilmiy jamoatchilik e’tiborini qaratgan va ancha batafsil tahlil qilgan edi⁷.

Qator falsafiy hamda orifona dostonlari bilan shuhrat qozongan Sanoiy Balxiy (XI-XII asrlar)ning mazkur asari 23 fasl, muqaddima va xotima boblaridan iborat. Unda shoirning xayolan narigi dunyoga sayohati tasvirlangan. “Do‘zax” qatlamlaridagi azob-qiynoqlar manzarasi chiziladi. Muqaddimada o‘simlik joni (“nafsi numo‘ya”), hayvon joni (“ruhi hayvoniy”), insoniy ruh haqida fikr yuritiladi.

Insoniy ruh olami asarda bir afsonaviy shahar sifatida tasvirlangan. Bu shahar ahli o‘zlari va o‘z avlodlaridan boshqani o‘ylamaydilar. Binobarin, o‘zaro kurashlar, urush va janjallar changalida yashaydilar. Shaharning tashqi ko‘rinishi go‘zal, ammo ichkarisi xunuk, jirkanchdir. Shaharning nur, olov va qorong‘ilikdan iborat uchta hokimi bor. Bular ham faqat o‘z manfaatlarini o‘ylaydilar. Ikkita otlari (kecha va kunduz) borki, ular o‘z suvoriylarini yeyish payida yuradilar. Bu bosqichda inson hayoti hayvoniy hayotga o‘xshashdir. Faqat nafsi go‘yo (ruhi notiq)gina uni bu “birodarlari”dan xalos qila oladi.

Shoir qorong‘ulik olamida yuzidan nur yog‘ilib turgan mo‘ysafidni ko‘rib qoladi. Bu nafsi oqila (aql)dir. Mo‘ysafid shoirni ramziy mamlakat sayriga boshlaydi. Safar eng quyi unsur – yer (hayulo)dan boshlanadi. Bu joyda zulumot ham qorong‘ulik hukmron. Odamxo‘r maxluqlar, zaharli ilonlar, bo‘ri, ajdarho, g‘uj-g‘uj chayonlar vahima solib turibdilar. Ularning hammasini Kobon boshqaradi. Keyingi bobda yo‘lovchilar boshi bitta, yuzi yettita, to‘rt kaftli bahaybat afyun qiyofasidagi maxluqqa duch keladilar. Bu hirs, ochko‘zlik va xasislik timsoli. Sanoiy qo‘rqib ketadi, ammo mo‘ysafid bir ishora bilan uni daf etadi. Ilon yo‘ldan chetlashgach, shoir yana o‘z rahnamosi bilan olg‘a qadam bosadi. Bundan keyingi bobda ular tili yuragida – yu, ko‘zi bo‘ynida bo‘lgan devlar (hasad ramzi) yurtiga kelib qoladilar.

Sakkizinchi bobda ustini tutun qoplagan toshloq sahro ko‘rinishidagi ta’ma paydo bo‘ladi. Unda doimo yovvoyi hayvonlar hayronu sarson kezadilar. Ularning boshlari faqat ko‘zdan, qo‘llari nuqul badandan iborat. Bu viloyatdan keyin yo‘lovchilar o‘tishlari lozim bo‘lgan po‘rtanali dengizga duch keladilar. Sanoiy vahimaga tushar ekan, Mo‘ysafid: Agar sen hayvoniy hislarni orqada qoldirsang, bu dengizdan eson-omon o‘tasan, deb maslahat beradi. Demak, adib donishmandlik bilan chin insoniy fazilatlar silsilasini olg‘a surgan. Binobarin, yuksak insoniy ma’naviyatga erishish – ulkan, qo‘rqinchli dengizlardan suzib o‘tish kabi mashaqqatli vazifa ekanligini uqtirmoqchi.

⁷ Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1990. – С. 460.

Nihoyat, shoir nurlari koʻzni qamashtiruvchi yurtga qadam qoʻyadi. Bu – aqli mukammal boʻlgan ibratlar mamlakatidir. Bilim, maʼrifat oshiqslari shu yerdalar. Sohibdil, solih darvishlar ham uning homiyligida baxtiyordirlar. Moʻysafid, shoirni yana olgʻa borishga undab, oʻzi orqaga qaytadi. Chunki bundan keyingi mamlakatlar safariga uning rahnamoligiga hojat yoʻq edi.

Sanoiy tariqat ahli bilan yuz koʻrishadi, keyin ularning maslahatiga koʻra yana oldinga – Buyuk muhabbat dargohiga intiladi.

Oxirgi bob esa Musaffo Xayrni madh etishga bagʻishlangandir. Dantening “Ilohiy komediya”sida ham mana shu mavzuning badiiy sintezini koʻrish mumkin.

Shunday obrazlar boʻladiki, davr tanlamaydi. Hazrati Xizr, Luqmoni hakim, Afandi, Avliyo obrazlarining genezisi xalq ogʻzaki ijodi, islom dini bilan bogʻliq, unda ham sinkretizm, ham badiiy sintez hodisasini kuzatish mumkin. Avliyo obrazi baʼzan aniq bir shaxs, baʼzan nomaʼlum bir zot timsolida gavdalanadi. Uning barcha asarlardagi vazifasi bir xil: odamlarga yordam beradi, ogʻir vaziyatlardan olib chiqadi, mushkullarini yengillashtiradi, toʻgʻri yoʻl koʻrsatadi, xavf-xatardan ogohlantiradi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, obrazlar sathidagi badiiy sintez eng qadimgi manbalarimizga borib taqalashi bilan bir qatorda bugungi hikoyalarimizda oʻziga xos tarzda boʻy koʻrsatadi. Ijodkorlarimizda vorisiylik anʼanasi nafaqat uslublarida, balki obraz yaratish mahoratlarida ham koʻrinib turadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (Results and Discussions)

Adabiyotshunos Damin Toʻrayev Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romani haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Isteʼdodli yozuvchi Isajon Sulton oʻzining “Boqiy darbadar” nomli romanida insoniyat tarixi va hayotning abadiyati xususida hayot aro maʼnosiz daydib, qilar ishlari “hech narsa va faqat hech narsa” boʻlib qolgan kishilarning “boqiy darbadar”ga aylanishini talqin qiladi”. Muallif taʼkidlagan yozuvchining poetik konsepsiyasi toʻplamdagi “TODD”, “Bogʻi “Eram”, “Avliyo”, “Qismat”, “Orif”, “21 asrning 8 yashar bolasi”, “Ismsiz qahramon” hikoyalarida ham boʻrtib turadi.

Mazkur hikoyalarda inson taqdiri, qazo va qadar, insonni baxtga boshlab boradigan yoʻl, har bir qilingan amalning, aytilgan soʻzning, miyada kechgan fikrning inson qismatiga daxldor ekanligi, hayotning maʼnosi oʻzini va oʻzini Yaratganni anglashda ekanligi toʻgʻrisida bir-biriga oʻxshamaydigan voqealar bayon qilingan.

“Bogʻi Eram” hikoyasi bedazor tasviri bilan boshlanadi. Unda “...issiqda oʻt-oʻlanlar orasiga tushib qolgan asalarilar boʻgʻiq gʻoʻngʻillashar edi. Bedazorning nihoyasidan zilol suvli ariq oqib oʻtgan edi”. Hikoya qahramoni va oʻrtogʻi bilan onasi yopgan nonlardan birini olib qochib, ariqqa oqizayotgan vaziyatda tanishamiz.

U sakkiz-to‘qqiz yashar bolakay. Shunda ko‘chaning boshida, loysuvoq uyining oldida doim quyoshda isinib o‘tiradigan Xolmuhammad buva ularning oldiga kelib, bolalarning o‘yinlariga biroz termulib turadi va bolalar saldan keyin esa uning ko‘zlarining yoshlanganligini ko‘rib qolishadi.

“– Nimaga yig‘layapsiz, buva? – deb so‘radim men.

Chol soqoli titrab:

– Bir mahallar men ham onam yopgan nonni shunaqa oqizib yer edim, o‘shani eslab yig‘layapman, bolam. Evoh, o‘zim ham shu ariqdagi nonday oqdim-ketdim... – dedi. Non yegisi kelyapti, deb o‘yladimmi, har holda o‘zimning suvga bo‘kkan nonimni olib, unga uzatganim esimda. Chol bo‘lsa nonni oldi-yu hech uyalib-netmasdan, ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Bizlar angrayib qoldik.

Chol, qo‘lida bir burda non, ko‘zida yosh, yana imillab yo‘lida davom etdi”⁸.

Hikoya qahramoni hayoti davomida mo‘jizaga duch keladi va ular bolaning taqdiriga daxldor. Qulagan devor o‘rnida paydo bo‘lgan kattakon darvozadan kirib kelgan chol Hayot ramzi, u o‘zining o‘tgan umriga achinib yig‘laydi, balki imkon bo‘la turib qilmagan yaxshilik, saxovati yoki birovning ko‘nglini og‘ritgani, xafa qilgani uchundir. Ammo adib bunga hech qanday izoh bermaydi. Hikoya yanada qiziqarli tus oladi:

“Uning ortidan qarayman deb ariqdan hatladimu chol ham esimdand chiqib, ko‘zlarim baqraygancha qotib qoldim. Nimani ko‘rding deng? Qopqalari tilladan, tutqichlari billurdan bo‘lgan bir bog‘ning qarshisida ko‘rdim o‘zimni! Qopqa yonida, billur halqani tutib turgan men qatori bir bolakay menga qarab kular va ichkariga imlar edi.

Oldinga ikki qadam bosib, boqqa mo‘raladim. U yerda nimalarni ko‘rganimni aytolmayman, aytganim bilan qanaqadir zaminii narsalarga o‘xshab qolaveradi. U yerdagi daraxtlar, bizning ko‘rganimiz odatdagi daraxtlarga o‘xshab ketgani bilan, mutlaqo boshqacha edi. U yerdagi qushlar, suvlar... Bu bog‘ samoviy edi! G‘oyatda go‘zal edi! Bu go‘zallikka mos ta‘rif topolmay o‘rtanaman.

Bog‘ meni o‘ziga shu qadar maftun etdiki, oldinga beixtiyor yana bir qadam qo‘ydim. Tag‘in bir qadam qo‘ysam, bog‘ ichkarisidaman. Hilpirab uchayotgan oltin ninachilarni tutib olishim, huv anavi zar qanotli Semurg‘ bilan suhbatlashishim hech gap emas...”⁹

Bola qopqaning shundoq yonginasida judayam ulkan shoxlari bulutlar orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan bir yashil daraxtni ko‘rib qoladi. Har zamon-har zamonda

⁸ Sulton I. Asarlar. I jild. Hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017. Bog‘i Eram. – B. 48.

⁹ Sulton I. Asarlar. I jild. Hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017. Bog‘i Eram. – B. 49.

shoxlaridan yaproqlar uzilib tushayotgan sargʻaygan bir barg uning oyogʻi ostiga kelib tushadi. Bola bargda yozuv borligini, sargʻish tomirchalari boʻrtib turgan yaproq sirtiga «Xolmuhammad Ziy oʻgʻli» deb bitilganini koʻradi.

Oradan yillar oʻtadi, bolakay ulgʻayadi va oʻzi ham ota boʻladi. Ammo bu paytga kelib bedazor kichkinagina boʻlib qolgan, ariq esa koʻmilayozgandi. U oʻgʻliga bogʻdan gilos terib bermoqchi boʻlganida ikkinchi bor moʻjizaga duch keladi.

“Gilos shoxlari orasidan yana oʻsha sirli bogʻ namoyon boʻlgan edi. Oʻsha-oʻsha! Qopqalari tilladan, tutqichlari marvariddan... Eshik oldida qop-qora soqol-moʻylovli yoshgina darbon menga kulib qarab turar edi. U meni tanigan edi, men ham uni tanidim. U imo qilib, ichkariga chorlar edi”¹⁰.

Bola gullar gʻunchalab, oʻsha zahoti ochilayotganligini, darvoza yonida bahaybat bir daraxt yuksalib turganligini, yaproqlari chirt-chirt uzilayotganini koʻradi. Koʻnglimdan “Toʻbi daraxti shu emasmikin”, degan oʻy kechadi. Bu safar u oyogʻim ostiga uzilib tushgan yaproqqa qarab otasining ismi bitilganini koʻradi. Uyiga qaytgach, otasining yorugʻ olamni tark etganligi ustidan chiqadi va bu bogʻdan choʻchiydigan boʻlib qoladi.

Hikoya qahramoni bogʻni uchinchi dafʼa koʻrganida yoshi anchaga borgan, soch-soqoli oqargan edi. U bu galgi zuhurotidan gʻalati bir hikmat tuysa-da, tubiga yetolmaydi. Endi u eshikdagi darbonning ham sochlariga oq oralaganligini, bogʻ ichida erta kuz boshlanayotganligini va oyogʻi ostiga kelib tushgan yaprokda bolalikdan birga oʻynab katta boʻlgan doʻstining ismi yozilganligini koʻradi.

U saodat bogʻini toʻrtinchi dafʼa koʻrganida sal narida ikkita bolakay ariqda non oqizishayotganiga guvoh boʻladi va ularga qarab koʻz oʻngidan bolaligi, ota-onasi, qaynoq nonlar oʻtadi. Shunda “Bolakaylarning biri meni koʻrib qoldi. Hayron boʻlgandek, koʻzlarini pirpiratib qarab turdi-da:

– Nimaga yigʻlayapsiz, buva? – deb soʻradi.

– Voh bolam-a! Nega yigʻlamayin, koʻnglimdan oʻtganini qanday qilib aytmayin? Axir, men ham bir mahallar onam yopgan nonlarni sizlar kabi ariqda oqizib yer edim... Evoh, oʻzim ham shu ariqdagi nonday oqdim-ketdim-ku!”¹¹

Hikoyaning qisqacha mazmuni shundan iborat, unda inson umrining toʻrt davri aks etgan. Hazrat Navoiy ham inson umrini toʻrt davrga ajratgan ekanlar. Xalq orasida toʻrt kunlik dunyo degan hikmat ham tez-tez takrorlanadi. Yozuvchi ramz va majozlar vositasida inson umrining oʻtkinchiligi, uning hech bir lahzasini ortga qaytarishning imkoni yoʻqligini, hamma narsa, hatto odamlar ham omonatligini

¹⁰ Sulton I. Asarlar. I jild. Hikoyalar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2017. Bogʻi Eram. – B. 50.

¹¹ Sulton I. Asarlar. I jild. Hikoyalar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2017. Bogʻi Eram. – B. 48.

eslatadi. Xayol va hayot, tafakkur va taxayyul, tiriklik va o‘lim, fano va baqo sintezlashgan bu tasvirlar inson insondek yashashi shart, degan xulosaga undaydi.

XULOSA (Conclusions)

Xullas, biz yuqoridagi tahlillarimizda o‘zbek adabiyotida obrazlar sathidagi badiiy sintezning tarixiy ildizlari (genezisi) adabiyotimiz merosining qadimiy davrlariga borib taqalishini o‘rgandik. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod obrazi bosh qahramon sifatida tanlangani, bu Navoiygacha yaratilgan “Xamsa”larda kuzatilmagani bu esa ulug‘ shoirning aql – tafakkuri va taxayyulotu natijasida yaratilgan betakror obraz (aynan, biz ta’rif berayotgan sintez hodisasi) ekanligini ilmiy dalilladik.

Bundan tashqari, Yusuf adabiyotimizda faol ommalashgan obraz bo‘lib, “Qur’oni Karim”da, “Qissasi Rabg‘uziy”da, Jomiy va Lutfiy qalamiga mansub “Yusuf va Zulayho” dostonlarida, Gyotening “Zulayxonoma”sida bu zot haqida hikoya qilinganligi haqida to‘xtaldik, eng qizig‘i bugungi hikoyalari aynan shu tarixiy ildizdan suv ichayotganini yozuvchilardan Ulug‘bek Hamdam va Isajon Sulton hikoyalari misolida muqoyasa qildik.

Misollardan ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotida obrazlar sathidagi badiiy sintezning tarixiy ildizlari alohida bir tadqiqot mavzusi bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR (References)

1. «Арабская средневековая культура и литература» (Стати зарубежных ученых). – М.: Наука, 1978. – С. 204.
2. «Дантевская чтения». – М.: Наука, 1973. – С. 115-116.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. XX tomlik, VIII tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 67.
4. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. –T.: O‘zdavnashr, 1955
5. Imomova G. Hikoyada badiiy sintez va ramziy tasvir, Sharq yulduzi, 2005-yil, 3-5-fasl
6. Isomiddinov Z. Shavqi navo. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B. 12-33.
7. JO‘RAQULOV U. “ADABIY-TARIXIY JARAYoN: IJODKOR. JANR. XRONOTOP”, Toshkent – 2015
8. Komilov N. Ibn Sino va Dante. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 21-24.
9. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: Yozuvchi, 1990. – B. 103.
10. Quronov D. va boshqalar. “Adabiyotshunoslik lug‘ati” –T.: Akademnashr, 2013

11. Quronov S, Yusupova D. “Fusuli arbaa” qasida badiiy sintez masalasi”
<https://quronov.narod.ru>.
12. QuronovS. “Zamonaviy o‘zbek she’riyatda badiiy sintez muammosi”
<https://quronov.uz>
13. Imomova, G. Literary-Artistical Synthesis Opportunities. International Journal on Integrated Education, 4(6), 79-85. 7. Imomova, G. HISTORICAL GENESIS OF ARTISTIC SYNTHESIS IN IMAGE SALES.
14. Niyazova, Z. E., & Imomova, G. M. (2021). ISAJON SULTON HIKOYALARIDA MILLIY MADANIYATIMIZ–XALQ OGZAKI IJODIMIZ UNSURLARINING AKSLANISHI. Scientific progress, 2(8), 363-367.
15. Xayrullo o‘g‘li, Rahmonqulov Musulmon, and Gulchexra Imomova. "FITRAT DRAMATURGIYASIDA DAVR VOQEALARI." USA-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION 1.2 (2025): 25-30.
16. Xayrullo o‘g‘li, R. M., & Imomova, G. (2025). FITRAT DRAMATURGIYASIDA DAVR VOQEALARI. USA-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION, 1(2), 25-30.
17. Imomova, Gulchehra. "THE ISSUE OF DOMINANCE IN LITERARY-ARTISTIC SYNTHESIS." Theoretical & Applied Science 6 (2020): 245-249.
18. Imomova, G. (2020). THE ISSUE OF DOMINANCE IN LITERARY-ARTISTIC SYNTHESIS. Theoretical & Applied Science, (6), 245-249.
19. Imomova, G. (2023, December). ADABIYOT VA SAN’ATNING UZVIYILIGI MASALASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ISSN: 2181-3906 2025 International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 11 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ 925 on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions” (Vol. 1, No. 01).
20. Dilmurodova, P., & Imomova, G. (2025). CHO ‘LPON HIKOYALARIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZGA XOS JIHATLARNING AKS ETISHI. Modern Science and Research, 4(5), 1218-1222.
21. Dilmurodova, P., & Imomova, G. (2025). CHO ‘LPON HIKOYALARIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZGA XOS JIHATLARNING AKS ETISHI. Modern Science and Research, 4(5), 1218-1222.
22. Niyazova, Z. E., & Imomova, G. M. (2021). ISAJON SULTON HIKOYALARIDA MILLIY MADANIYATIMIZ–XALQ OGZAKI IJODIMIZ UNSURLARINING AKSLANISHI. Scientific progress, 2(8), 363-367.

23. Imomova, G. ROMAN POETIKASIDA MUALLIF NUTQI VA QAHRAMONLAR NUTQINING ICHKI ALOQALARI. Normuradov M., Xoliqulova S. Yu. "Nanoelektronika" kursini innovatsion yondashuvlar asosida o'qitishga yo 'naltirilgan ta'lim modeli 179 Razzoqov DN, Ravshanova Sh. Q. Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida kasbiy qiziqishni shakllantirish texnologiyasi 185 Sattorova FE Concepts and methodics of teaching english in primary education 189, 149.
24. Imomova, Gulchehra. "THE ISSUE OF DOMINANCE IN LITERARY-ARTISTIC SYNTHESIS." *Theoretical & Applied Science* 6 (2020): 245-249.
25. Achilov, N. K. (2022). The image of a historical person and its epical interpretation. *JournalNX*, 8(05), 126-132.
26. Rajabova, H. (2025). INTERPRETATION OF TIME AND SPACE IN SHORTS (CHRONOTOPE)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim "Yilon", "Maqar", Kholiyor Safarov "Honor and Life", "Wingless Birds", "The Saddest Joy"). *Modern Science and Research*, 4(3), 1332-1340.
27. Achilov, N. K. "The image of a historical person and its epical interpretation." *JournalNX* 8.05 (2022): 126-132.
28. Achilov, N. K. (2022). The image of a historical person and its epical interpretation. *JournalNX*, 8(05), 126-132.